“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Bola bilan koʻrishish huquqini ta'minlash: xalqaro tajriba va milliy sud amaliyotini takomillashtirish muammolari

Matluba Aminjonova,
Huquqni muhoqaza qilish akademiyasi
“Prokurorlik faoliyati va prokuror nazorati” kafedrasi katta oʻqituvchisi, yu.f.d, professor
e-mail: matluba0777@icloud.com

Аннотация. Mazkur maqolada ajrashgan oilalarda boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning bola bilan muloqot qilish huquqini ta'minlash muammosi kompleks tarzda oʻrganilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 76-moddasi ikkinchi bandining amaliyotda qoʻllanilishi tahlil qilinib, sudlar tomonidan koʻrishish tartibini kunlar va soatlar bilan cheklab qoʻyish amaliyotining qonun talablariga hamda bolaning manfaatlariga zidligi asoslangan. Ommaviy axborot vositalarida keng tarqalgan, bolaning faqat ona tarbiyasida qolishi natijasida oʻgʻil bolalarda erkaklik xususiyatlari shakllanmasligi haqidagi xavotirning ilmiy asoslanganlik darajasi tanqidiy baholangan va bu xavotirning huquqiy yechimi aynan bolani kim tarbiyalashi emas, balki har ikkala ota-ona bilan barqaror muloqotni ta'minlash ekanligi isbotlangan. Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Ispaniyaning “teng yashash” tizimi misolida, shuningdek 36 ta Gʻarb mamlakatini qamrab olgan qiyosiy tadqiqot ma'lumotlari asosida xalqaro tajriba oʻrganilib, uning ijobiy va bahsli jihatlari ochib berilgan. Rossiya Federatsiyasi Oila kodeksi bilan qisqa qiyosiy tahlil oʻtkazilgan hamda Polsha tajribasi misolida koʻrishish huquqini ta'minlovchi majburlovchi choralarning oʻzi ham suiiste'mol qilinishi mumkinligi alohida koʻrsatilgan. Tadqiqot yakunida Oila kodeksining76-moddasini takomillashtirishga doir norma taklifi va amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. oila huquqi, bolaning oliy manfaati, koʻrishish tartibi, qoʻshma vasiylik, teng yashash tizimi, ota ta'sirisiz tarbiya, sud amaliyoti, Oila kodeksi, ota-onadan begonalashtirish, qiyosiy-huquqiy tahlil.

Аннотация. В статье комплексно исследуется проблема обеспечения права отдельно проживающего родителя на общение с ребёнком после расторжения брака. Анализируется применение части второй статьи 76 Семейного кодекса Республики Узбекистан и доказывается, что практика судов по ограничению общения конкретными днями и часами противоречит как требованиям закона, так и интересам ребёнка. Критически оценивается степень научной обоснованности широко распространённого в обществе опасения о том, что мальчики, воспитываемые только матерью, не приобретают достаточных «мужских» качеств; показано, что правовое решение проблемы состоит не в передаче опеки, а в обеспечении устойчивого общения ребёнка с обоими

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

родителями. На примере Швеции, Норвегии, Дании и Испании, а также данных сравнительного исследования 36 западных стран изучен зарубежный опыт системы «равного проживания», включая его дискуссионные аспекты. Проведено краткое сопоставление с Семейным кодексом Российской Федерации, а на примере Польши особо подчёркнут риск злоупотребления принудительными мерами исполнения. В заключение предложена редакция статьи 76 Семейного кодекса.

Ключевые слова. семейное право, наилучшие интересы ребёнка, порядок общения, совместная опека, равное проживание, отсутствие отца, судебная практика, Семейный кодекс, отчуждение от родителя, сравнительно-правовой анализ.

Annotation. This article examines the problem of ensuring the right of a separated parent to communicate with a child after divorce. The application of Article 76, part two, of the Family Code of the Republic of Uzbekistan is analysed, showing that the judicial practice of limiting contact to fixed days and hours contradicts both the letter of the law and the best interests of the child. The widely circulated public concern that boys raised solely by mothers fail to develop adequate masculine traits is critically evaluated, and it is argued that the legal remedy lies not in reassigning custody but in guaranteeing stable, sustained contact with both parents. The comparative experience of Sweden, Norway, Denmark and Spain regarding alternating residence arrangements is reviewed, together with data from a cross-national study of 36 Western countries, including its contested aspects. The analysis further draws a brief comparison with the Family Code of the Russian Federation and, through the cautionary example of Poland, highlights the risk that coercive enforcement measures may themselves be misused. The article concludes with a proposed amendment to Article 76 of the Family Code.

Keywords. family law, best interests of the child, contact arrangements, joint custody, alternating residence, father absence, judicial practice, Family Code, parental alienation, comparative legal analysis.

Oila jamiyatning birlamchi boʻgʻini sifatida davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchi hisoblanadi. Shu bilan birga, nikohning bekor qilinishi ijtimoiy voqelik tarzida dunyoning barcha mamlakatlarida, shu jumladan Oʻzbekistonda ham mavjud boʻlib, uning oqibatlari, avvalambor, bolalarning tarbiyasi va psixologik holatiga ta'sir koʻrsatadi. Soʻnggi yillarda nafaqat mutaxassislar, balki keng jamoatchilik oʻrtasida ham ajrashgan oilalarda bolaning tarbiyasi, xususan, koʻpincha onada qolayotgan oʻgʻil bolalarning erkak namunasi ishtirokisiz shakllanishi mumkin boʻlgan xulq-atvor xususiyatlari haqida faol mulohazalar yuritilmoqda. Internet tarmoqlari, shu jumladan xorijiy nashrlarda, ajrashuvdan soʻng bolani koʻpincha ona tarbiyasida qolishi, buning oqibatida oʻgʻil bolalarda yetarli darajada erkaklik xususiyatlari shakllanmasligi mumkinligi haqidagi xavotirlar keng muhokama qilinmoqda.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Amaldagi sud amaliyoti bolaning ota (ona) bilan koʻrishishini ma'lum kunlar va soatlar bilan sun'iy cheklash orqali, aslida, bolaning ota-onasi bilan yaqin aloqada boʻlish huquqini Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 76-moddasi ikkinchi bandida mustahkamlangan normani amalda cheklamoqda[1].

Xorijiy, xususan amerikalik va yevropalik tadqiqotchilarning koʻplab ishlarida otaning bolani tarbiyalashdagi faol ishtiroki bilan bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi oʻrtasida statistik bogʻliqlik borligi qayd etilgan. Xususan, otadan uzoqda oʻsgan bolalarda hissiyotlarni boshqarishda qiyinchiliklar, oʻzini oʻzi past baholash va xulq-atvor muammolarining nisbatan koʻproq uchrashi borasidagi ma'lumotlar mavjud. AQShda oʻtkazilgan uzoq muddatli kuzatuv tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, ota bilan aloqaning yoʻqligi, ayniqsa erta bolalik davrida yuz bersa, bolaning xulq-atvorida tashqi koʻrinishdagi buzilishlar (agressivlik, intizomsizlik) xavfini oshiradi[2]. Shved va boshqa yevropalik tadqiqotchilar ham otaning faol ishtiroki bolalarning uzoq muddatli ijtimoiy va xulqiy koʻrsatkichlariga ijobiy ta'sir koʻrsatishini tasdiqlaydigan tizimli sharhlar e'lon qilishgan[3].

Shu bilan birga, ushbu sohadagi ilmiy adabiyotda tanqidiy yoʻnalish ham ancha kuchli oʻrin tutadi. Koʻplab mualliflar otaning yoʻqligi bilan bogʻliq salbiy natijalarning asosiy sababi otaning oʻzi emas, balki ajralishga hamroh boʻladigan boshqa omillar – oilaviy nizolar, iqtisodiy qiyinchilik, ota-ona oʻrtasidagi davomli ziddiyat ekanini ta'kidlaydilar. Boshqacha aytganda, “otaning yoʻqligi” bilan “bolaning xulq-atvor muammolari” oʻrtasidagi bogʻliqlik koʻpincha oddiy korrelyatsiya boʻlib, toʻgʻridan-toʻgʻri sabab-oqibat munosabatini isbotlamaydi. Bu borada metodologik jihatdan puxtaroq yondashuvlarni qoʻllagan tadqiqotlar ham mavjud boʻlib, ular otaning yoʻqligi bilan bolaning ijtimoiy-hissiy muammolari oʻrtasida nisbatan kuchliroq, lekin har doim ham bir xil darajada namoyon boʻlmaydigan bogʻliqlikni aniqlagan.

Bundan tashqari, gender tadqiqotlari sohasidagi mutaxassislar “oʻgʻil bola faqat ota namunasi orqali “toʻgʻri” erkaklik xususiyatlarini shakllantira oladi” degan tasavvurning oʻzi ilmiy jihatdan bir tomonlama va bahsli ekanini koʻrsatadilar. Chunki, bolaning shaxs sifatida shakllanishida maktab muhiti, tengdoshlar davrasi, katta avlod vakillari, sport va ijodiy mashgʻulotlar kabi koʻplab ijtimoiy institutlar baravar ahamiyatga ega.

Shuningdek, boladan alohida yashayotgan ota (ona) bilan koʻrishishga bola bilan yashayotgan ikkinchi ota (ona) tomonidan koʻrsatiladigan qarshilik mavzusida xalqaro amaliyotda “ota-onadan begonalashtirish” (parental alienation) deb nomlanuvchi tushuncha muhokama qilinadi. Ammo ushbu tushunchaning oʻzi ham ilmiy jamoatchilik tomonidan bir xilda qabul qilinmagan: bir qator mualliflar uni klinik jihatdan yetarli asoslanmagan va ayrim hollarda bolani haqiqiy zoʻravonlik yoki noxush munosabatdan himoya qilish zaruratini inkor etish uchun notoʻgʻri ishlatilishi mumkin boʻlgan tushuncha sifatida tanqid qiladilar. Boshqa

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tadqiqotchilar esa, aksincha, begonalashtirish hodisasining realligini va uning bolaga uzoq muddatli psixologik zarar yetkazishi mumkinligini tasdiqlaydigan dalillarni keltiradilar[4] Demak, mazkur masala ham bir tomonlama emas, balki har bir aniq holatda alohida oʻrganilishi lozim boʻlgan murakkab masaladir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, muammoning toʻgʻri qoʻyilishi ya'ni “bolani kim tarbiyalashi kerak” degan savolda emas, balki “ajralishdan soʻng ham bola har ikkala ota-ona bilan toʻlaqonli, barqaror va tizimli muloqotda boʻlishini qanday ta'minlash kerak” degan savolda ekani ilmiy jihatdan ancha asoslidir. Aynan shu nuqtada masalaning ijtimoiy-psixologik jihati huquqiy tartibga solish masalasiga ulanadi.

Dunyoning bir qator davlatlarida ajralishdan soʻng bolani tarbiyalash borasida “qoʻshma jismoniy vasiylik” (joint physical custody) yoki “almashib yashash” (alternating residence) tizimi joriy etilgan boʻlib, unda bola ota va ona bilan taxminan teng vaqt oʻtkazadi. Bu yerda tamoyil “bir tomon bolani necha soat koʻradi” emas, balki bola hayotining barqaror va teng qismi ikkala ota-onada ham oʻtishi tarzida qurilgan. Ya'ni, bu davlatlarda ota onalar oʻrtasidagi munosabat bolaning ota va ona bilan birga qancha vaqt oʻtkazishiga ta'sir qilmasligi tamoyili belgilangan.

Kengroq xalqaro miqyosda ham shunga oʻxshash tendensiya qayd etilgan: 36 ta Gʻarb mamlakatini qamrab olgan yirik qiyosiy tadqiqotda 11, 13 va 15 yoshli oʻsmirlar orasida ota-ona bilan taxminan teng vaqt oʻtkazish koʻrsatkichi boʻyicha Shvetsiya (20,9%) yetakchilik qilib, undan keyin Belgiya (13,5%), Islandiya (11,7%), Daniya va Kanada (har biri 9,5%) hamda Norvegiya (8,8%) joy olgan[5]; shu bilan birga, koʻpgina boshqa mamlakatlarda bu koʻrsatkich sezilarli darajada past boʻlib qolmoqda. Bu ma'lumotlar teng yashash tizimining tarqalishi, avvalambor, har bir mamlakatning ijtimoiy-madaniy zaminiga va ota-onalar tengligiga yoʻnaltirilgan davlat siyosatining izchilligiga bogʻliq ekanini koʻrsatadi.

Maktabgacha yoshdagi (0-4 yosh) bolalar boʻyicha oʻtkazilgan alohida tadqiqotda, teng yashash tartibidagi bolalarda yakka ota yoki ona qaramogʻidagilarga nisbatan psixologik belgilarning kamroq namoyon boʻlgani aniqlangan. Bu esa yosh omilining ta'siri borasida ilmiy adabiyotda hali yakdillik mavjud emasligini yana bir bor tasdiqlaydi. Boshqa tadqiqotchilar esa bolaning farovonligini belgilashda yashash tartibining oʻzidan koʻra ota-ona oʻrtasidagi nizo darajasi ancha muhimroq omil ekanini koʻrsatgan. Demak, teng yashash tizimining samaradorligi bolaning yoshi, ota-ona oʻrtasidagi munosabat sifati va amaliy tashkiliy sharoitlarga bogʻliq boʻlib, uni har qanday holatda avtomatik tarzda qoʻllash toʻgʻri boʻlmaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 71-moddasida ota va ona huquqlarining tengligi prinsipi mustahkamlangan, bu prinsip, avvalambor, ajralishdan keyin ham har ikki ota-onaning bola taqdiriga oid masalalarni hal qilishda teng ishtirok etish huquqini

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

anglatadi. Mazkur umumiy prinsip negizida, Oila kodeksining 76-moddasi ikkinchi bandiga koʻra, bola bilan birga yashayotgan ota (ona) bolaning ona (ota)si bilan koʻrishishiga, agar bunday koʻrishish bolaning jismoniy va ruhiy sogʻligʻiga, axloqiy kamolotiga zarar keltirmasa, qarshilik qilmasligi lozim. Ushbu normaning mazmunidan koʻrinadiki, qonunchilik bolaning ikkinchi ota-onasi bilan koʻrishishini qat'iy vaqt chegaralari bilan belgilashni nazarda tutmaydi aksincha, cheklovning yagona asosi bolaning jismoniy yoki ruhiy sogʻligʻiga, axloqiy kamolotiga zarar yetkazishi mumkin boʻlgan holatlardir. Shuni ta'kidlash joizki, boladan alohida yashovchi ota-onaning bola bilan muloqot qilish huquqi faqat milliy qonunchilikka xos boʻlmagan oʻxshash norma, jumladan, Rossiya Federatsiyasi Oila kodeksining 66-moddasida ham mustahkamlangan boʻlib, u ham alohida yashovchi ota-onaning bola tarbiyasi va ta'limiga oid masalalarni hal qilishda ishtirok etish huquqini kafolatlaydi. Lekin Rossiya Federatsiyasinig sud amaliyotida ham agar bola bilan koʻrishish borasida nizo boʻlsa boladan alohida yashayotgan ota yoki onaga bola bilan cheklangan miqdorda koʻrishish tartibi belgilanadi. Bu esa koʻrib chiqilayotgan muammoning faqat Oʻzbekistonga xos boʻlmagan, mintaqaviy ahamiyatga ega umumiyroq huquqiy tendensiya ekanini koʻrsatadi.

Ammo amaldagi sud amaliyoti ushbu normaning mazmuniga toʻla mos kelmaydi. Sudlar tomonidan, odatda, boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning bola bilan koʻrishishi haftaning ma'lum kunlarida, ma'lum soatlarda va vaqt oraliqlarida amalga oshirilishi belgilab qoʻyiladi. Bunday yondashuv bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Birinchidan, u Oila kodeksining 76-moddasi ikkinchi bandiga mazmunan zid, chunki qonunda nazarda tutilmagan qoʻshimcha cheklovni amaliyotga kiritadi.

Ikkinchidan, eng muhimi bunday tartib bolaning manfaatlariga zarar yetkazadi, chunki boladan ajratilgan ota yoki ona bilan har doim birga boʻlishni istaydigan bola uchun koʻrishishning sun'iy ravishda kunlar yoki soatlar bilan chegaralanishi, vaqt oʻtishi bilan ota-bola yoki ona-bola oʻrtasidagi hissiy aloqaning susayishiga va bir-biridan asta-sekin uzoqlashishiga olib keladi.

Mazkur muammo, ayniqsa, boladan alohida yashayotgan ota yoki ona boshqa hudud yoki shaharda istiqomat qilayotgan holatlarda yaqqol namoyon boʻladi. Amaliyotda koʻp uchraydigan holat shundan iboratki, uzoq masofadan bola yashayotgan hududga xizmat vazifasi yoki boshqa sabablarga koʻra kelgan ota (ona)ning tashrifi sud tomonidan belgilangan koʻrishish kunlari yoki soatlariga toʻgʻri kelmay qolgan taqdirda bola bilan yashayotgan ikkinchi ota-onaning qarshiligi tufayli, katta masofani bosib oʻtib kelgan ota (ona) farzandi bilan koʻrisha olmay qoladi. Bunday holat eng avvalo bolaning manfaatlariga putur yetkazadi, chunki bola har doim ota onasiga talpinib yashaydi, ayniqsa alohida yashayotgan ota yoki ona bilan koʻrishishni kutib yashaydi. Bu vaziyat nafaqat

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ota-ona va bola oʻrtasidagi munosabatlarga putur yetkazadi, balki mohiyatan Oila kodeksining 76-moddasi ikkinchi bandida mustahkamlangan koʻrishishga qarshilik koʻrsatmaslik majburiyati normasining ochiqdan-ochiq buzilishidir. Bola bilan koʻrishishni cheklab qoʻyish faqatgina bola bilan yashayotgan ona (ota)ning manfaatiga xizmat qiladi, chunki bola bilan yashayotgan ona (ota) bola bilan yashamayotgan ota (ona)ga bolani koʻrsatmaslik orqali oʻch olishni asosiy maqsad qilib oladi. Bu hayotda roʻy berayotgan bor haqiqat hisoblanadi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, amaliyotda bola bilan yashayotgan ota (ona) tomonidan koʻrishishga qarshilik koʻrsatish koʻpincha bolani tarbiyalash manfaatlaridan emas, balki sobiq turmush oʻrtogʻidan «oʻch olish» maqsadidan kelib chiqadi. Ya'ni, bola bolaning oʻzi uchun emas, balki ikkinchi ota-onaga ta'sir oʻtkazish vositasi sifatida foydalaniladi. Bunday holatlarda amaldagi, vaqtni qat'iy chegaralashga asoslangan sud tartibi, aksincha, qarshilik koʻrsatuvchi tomon uchun qulay vosita boʻlib xizmat qiladi – chunki belgilangan tor vaqt doirasidan foydalanmaslik yoki uni buzish orqali ikkinchi ota-onani farzandi bilan koʻrishish imkoniyatidan mahrum qilish ancha osonlashadi.

Ilmiy-amaliy xolislik tamoyilidan kelib chiqqan holda, yuqorida bayon etilgan yondashuvga qarshi bildirilishi mumkin boʻlgan e'tirozlarni ham koʻrib chiqish zarur. Birinchidan, koʻrishish vaqtini cheklamaslik tamoyili mutlaqlashtirilsa, bu oilada zoʻravonlik, giyohvandlik yoki bolaga nisbatan boshqa xavfli xulq-atvor mavjud boʻlgan holatlarda bolani himoya qilish vazifasini qiyinlashtirishi mumkin. Shu bois, Oila kodeksining 76-moddasida mustahkamlangan “bolaning jismoniy va ruhiy sogʻligʻiga, axloqiy kamolotiga zarar keltirmaslik” mezoni har qanday islohotda saqlanib qolishi va sud tomonidan har bir aniq ishda sinchiklab tekshirilishi shart boʻlgan asosiy kafolat sifatida qaralishi lozim.

Ikkinchidan, yuqorida qayd etilganidek, teng yashash tizimining oʻzi ham barcha yoshdagi va barcha oilaviy vaziyatdagi bolalar uchun bir xilda foydali emas, yuqori darajadagi nizo mavjud oilalarda bolani ikki uy oʻrtasida doimiy almashtirib turish, aksincha, uning hissiy barqarorligiga salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin. Shu sababli, maqolada tavsiya etilayotgan yondashuv Shvetsiya uslubidagi teng yashash tizimini soʻzsiz tarzda koʻchirib oʻtishni emas, balki uning asosiy tamoyilini koʻrishishni sun'iy ravishda tor doirada chegaralamaslikni milliy sharoitga moslashtirilgan holda amaliyotga joriy etishni nazarda tutadi.

Uchinchidan, “ota-onadan begonalashtirish” tushunchasidan foydalanishda ehtiyotkorlik zarur: ayrim tadqiqotchilar bu tushunchaning sud amaliyotida bolani real xavfdan, jumladan oilaviy zoʻravonlikdan himoya qilish zaruratini inkor etish uchun notoʻgʻri ishlatilishi mumkinligini ogohlantiradilar. Shu bois, bola bilan yashayotgan ota (ona)ning koʻrishishga qarshilik koʻrsatishi doim ham “oʻch olish” maqsadida emasligini, ba'zan bu haqiqiy xavotirlarga asoslanishi mumkinligini ham inobatga olish lozim. Bu

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

har bir ishni yakka tartibda, bolaning manfaatidan kelib chiqqan holda koʻrib chiqish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Toʻrtinchidan, teng yashash tizimini majburiy tartibda joriy etish borasidagi xorijiy tajriba ham bir xilda rivojlanmayotganini alohida ta'kidlash lozim. Bu holat mazkur masalada yakdil yechim mavjud emasligini yana bir bor koʻrsatadi. Xususan, Germaniya Oliy federal sudi (Bundesgerichtshof) 2017-yil 1-fevraldagi qarorida koʻrishish tartibini belgilash doirasida “almashinuvchi model”ni (Wechselmodell) ota-onadan birining roziligisiz ham joriy etish mumkinligini, bunda yagona hal qiluvchi mezon bolaning manfaati ekanini koʻrsatdi; shu bilan birga, sud alohida ta'kidladiki, ota-ona oʻrtasida yuqori darajadagi mojaro mavjud boʻlgan hollarda bunday tartibni joriy etish, qoida tariqasida, bolaning haqiqiy manfaatiga mos kelmaydi[6].

Germaniya Federal konstitutsiyaviy sudi esa undan oldinroq, 2015-yilgi qarorida, ota-onaning bola bilan teng vaqt oʻtkazishga konstitutsiyaviy da'vogarlik huquqi yoʻqligini va bolaning manfaati xavf ostida qolgan taqdirda teng boʻlmagan koʻrishish tartibini belgilash adolatli asosga ega ekanini koʻrsatgan edi[7]. Avstraliya tajribasi esa yana ham ijobiy hisoblanadi 2006-yilda joriy etilgan “teng taqsimlangan ota-onalik majburiyati” (equal shared parental responsibility) taxminiy qoidasi amaliyotda koʻpincha “teng vaqt”ga boʻlgan avtomatik huquq sifatida notoʻgʻri talqin qilinib, sud nizolarini kuchaytirgan va oilaviy zoʻravonlik qurbonlari uchun qoʻshimcha xavf tugʻdirgan, degan keng tarqalgan tanqidlar ostida 2023-yilgi islohot orqali 2024-yil 6-maydan boshlab butunlay bekor qilindi.

Endilikda har bir holat hech qanday oldindan belgilangan taxminsiz, faqat bolaning manfaatidan kelib chiqqan holda yakka tartibda hal qilinadi[8]. Ushbu ikki misol Germaniyaning individual yondashuvi va Avstraliyaning qat'iy taxmindan voz kechishi shuni koʻrsatadiki, koʻrishish huquqini kengaytirish tamoyilini qonunda mustahkamlash bilan birga, uni har qanday holatda avtomatik tarzda qoʻllaydigan qat'iy norma yoki formula oʻrnatishdan saqlanish zarur; aksincha, har bir ishni bolaning manfaatidan kelib chiqqan holda individual baholash tamoyili saqlanib qolishi shart.

Beshinchidan, koʻrishish huquqini ta'minlashga qaratilgan majburlovchi choralar (jumladan moliyaviy jarimalar) har doim ham bolani himoya qilish maqsadiga xizmat qilavermasligini koʻrsatuvchi xorijiy tajriba ham mavjud. Xususan, Yevropa Parlamentida koʻrib chiqilgan rasmiy soʻrovnomada qayd etilishicha, Polshada sud belgilagan uchrashuvlarga bola keltirilmaganligi uchun onalarga nisbatan qoʻllaniladigan moliyaviy jarima mexanizmi ayrim hollarda zoʻravonlik sodir etgan ota-onalar foydasiga ishlab, bolani haqiqiy xavfdan himoya qilish zaruratini inkor etish uchun suiiste'mol qilinishi mumkinligi aniqlangan[9]. Ushbu misol shuni koʻrsatadiki, koʻrishish huquqini ta'minlashga qaratilgan har qanday majburlovchi mexanizm bolani himoya qilish kafolatlari bilan mutanosib ravishda, faqat sudning har bir aniq

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

holatni zoʻravonlik yoki boshqa xavf alomatlari mavjudligi nuqtayi nazaridan sinchiklab tekshiruvi asosida qoʻllanilishi shart.

Yuqorida keltirilgan tahlil asosida, Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 76-moddasi ikkinchi bandi quyidagi mazmunda toʻldirilishi taklif etiladi: “Bunday hollarda sud bolaning manfaatidan kelib chiqqan holda bola bilan birga yashamayotgan ota (ona)ning bola bilan koʻrishishi, agar bolaning jismoniy va ruhiy sogʻligʻiga, axloqiy kamolotiga zarar keltirmasa, bolaning maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek maktablarda boʻlgan vaqtidan tashqari boshqa vaqtlarda cheklovsiz amalga oshirilishi haqida hal qiluv qarori chiqaradi”. Ushbu tahrirda faqat bolaning maktabgacha ta'lim muassasasi yoki maktabda boʻlish tartibi obyektiv cheklov sifatida koʻzda tutiladi, qolgan barcha vaqt esa ikkinchi ota-ona bilan koʻrishish uchun ochiq boʻlib qoladi.

Bundan tashqari, amaliyotga quyidagi qoʻshimcha chora-tadbirlarni joriy etish maqsadga muvofiq boʻlar edi: birinchidan, sud ajrim tajribasida koʻrishish tartibini belgilashda, tor vaqt chegaralari oʻrnida, umumiy tamoyil (maktab/bogʻcha vaqtidan tashqari cheklovsiz koʻrishish) va zarur hollarda eng kam kafolatlangan davr (masalan, haftasiga kamida ikki-uch kun va bayram/ta'til kunlarining teng taqsimlanishi)ni belgilashni nazarda tutish; ikkinchidan, uzoq masofadan keluvchi ota (ona) uchun uning tashrifi haqida oldindan xabardor qilish va moslashuvchan jadval tuzish majburiyatini joriy etish; uchinchidan, koʻrishishga asossiz qarshilik koʻrsatish holatlari uchun ma'muriy javobgarlik choralarini takomillashtirish; toʻrtinchidan, nizoli holatlarda majburiy oilaviy mediatsiya va bola psixologi ishtirokini ta'minlash; beshinchidan, sudlar va ijro organlari uchun bolaning manfaatini birinchi oʻringa qoʻyuvchi, xalqaro tajribaga asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqish; oltinchidan, sud qarorlarida, zarur holatlarda, bolaning ikkinchi ota-ona bilan onlayn (video qoʻngʻiroq, telefon orqali) muloqot qilish huquqini alohida koʻrsatish – bu, ayniqsa, uzoq masofadan keluvchi yoki vaqtincha tashrif buyura olmaydigan ota-ona uchun bevosita uchrashuvni toʻldiruvchi qoʻshimcha aloqa vositasi boʻlib xizmat qiladi; yettinchidan, koʻrishishga asossiz qarshilik koʻrsatish holatlarida bosqichma-bosqich ta'sir etish mexanizmini avval ogohlantirish, soʻng ma'muriy jarima, zarurat tugʻilgan yakuniy, istisno hollarda esa bolaning yashash joyini qayta koʻrib chiqish kabi chorasini qoʻllash lozim.

Xulosa

Oʻtkazilgan tadqiqot shuni koʻrsatadiki, ajrashgan oilalarda bolani tarbiyalash bilan bogʻliq ijtimoiy xavotir xususan, onada qolgan oʻgʻil bolalarda erkaklik xususiyatlarining yetarli shakllanmasligi haqidagi mulohazalar ilmiy adabiyotda qisman asosli, lekin koʻp jihatdan bir tomonlama talqin qilinadigan murakkab masaladir. Biroq, bu masalaning amaliy yechimi bolani qayta tarbiyalash subyektini almashtirishda emas, balki ajralishdan soʻng ham bolaning har ikkala ota-onasi bilan barqaror, tizimli va

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

to‘laqonli muloqotda bo‘lishini huquqiy jihatdan ta'minlashda ekani aniqlandi. O‘zbekiston sud amaliyotida boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning bola bilan ko‘rishishini kunlar va soatlar bilan sun'iy cheklash amaliyoti Oila kodeksining 76-moddasi ikkinchi bandiga hamda bolaning oliy manfaatlariga zid ekanligi asoslandi. Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Ispaniyaning teng yashash tizimi tajribasi[10], shuningdek, kengroq xalqaro qiyosiy ma'lumotlar, uning barcha jihatlarini tanqidiy baholagan holda, milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun muhim yo‘nalish ko‘rsatmasi bo‘la oladi; shu bilan birga, Polsha tajribasi ko‘rishish huquqini ta'minlashga qaratilgan har qanday majburlovchi mexanizmning o‘zi ham bolani himoya qilish kafolatlari bilan mutanosib bo‘lishi zarurligini eslatadi. Inson huquqlarini belgilovchi har bir konstitutsion va tarmoq qonunchiligi normasi, jumladan BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida mustahkamlangan “bolaning oliy manfaati” tamoyiliga muvofiq, puxta bo‘lishi va faqat xalq, shu jumladan eng himoyaga muhtoj guruh bolalar manfaatiga xizmat qilishi darajasida doimiy takomillashtirilib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси, 71-, 76-моддалар. – Тошкент: Адолат, 2024 й., таҳрири.

2.McLanahan S., Tach L., Schneider D. The Causal Effects of Father Absence // Annual Review of Sociology. — 2013. — Vol. 39. — P. 399–427.

3.Sarkadi A., Kristiansson R., Oberklaid F., Bremberg S. Fathers' involvement and children's developmental outcomes: a systematic review of longitudinal studies // Acta Paediatrica. – 2008. – Vol. 97. – P. 153–158.

4.Harman J., Lorandos D. Allegations of family violence in court: How parental alienation affects judicial outcomes // Psychology, Public Policy, and Law. – 2021. – Vol. 27, № 2. – P. 187–208.

5.Bjarnason T., Arnarsson A.M. Joint Physical Custody and Communication with Parents: A Cross-National Study of Children in 36 Western Countries // Journal of Comparative Family Studies. – 2011. – Vol. 42, № 6. – P. 871–890.

6.Bundesgerichtshof (BGH), Beschluss vom 1. Februar 2017 – XII ZB 601/15 // BGHZ. – Bd. 214. – S. 31 = FamRZ. – 2017. – S. 532.

7.Bundesverfassungsgericht (BVerfG), Nichtannahmebeschluss vom 24. Juni 2015 – 1 BvR 486/14 // FamRZ. – 2015. – S. 1585.

8.Family Law Amendment Act 2023 (Cth), Australia (s. 61DA presumption repealed, in force 6 May 2024); Australian Law Reform Commission. Family Law for the Future — An Inquiry into the Family Law System: Report No. 135. – Sydney: ALRC, 2019.

9.European Parliament. Written question P-9-2023-000136 The harmful effects of using the term “parental alienation syndrome” in family courts in Poland. – 2023.